

HYGIENIC REQUIREMENTS IN UPPER JAW IMPLANTATION AND THEIR CLINICAL SIGNIFICANCE

Olimbayev Bekzodjon Muzaffar o'g'li
Stomatologiya kafedrası assistenti, Alfraganus universiteti

Abstract

The article discusses hygienic requirements in maxillary dental implantation, including pre- and postoperative sanitary measures, aseptic and antiseptic protocols, and the impact of oral hygiene on implant success. Based on clinical observations and literature review, enhanced hygienic control significantly reduces peri-implantitis and postoperative complications.

Keywords: Maxilla, dental implantation, hygiene, asepsis, antiseptics, peri-implantitis, sinus lifting.

Introduction

Kirish

Hozirgi kunga kelib Tibbiyotning Stomatologiya sohasida ham bir qancha dental implantatsiya yuqori samaradorlikka ega bo'lgan davolash usullaridan biridir. Yuqori jag' anatomik tuzilish jihatdan jihatdan murakkab tuzilishga ega bo'lib, suyak zichligining pastligi, gaymor bo'shlig'iga yaqinligi hamda qon tomirlarda qon aylanishning o'zgarishi va turlicha holatda ta'minotining o'ziga xosligi sababli implantatsiya jarayonida gigiyenik talablar alohida ahamiyat kasb etadi. Aseptika va antiseptika qoidalariga rioya qilinmasligi periimplantit, sinusit va implantning yo'qotilishiga olib kelishi mumkin.

Tadqiqot maqsadi

Yuqori jag' implantatsiyasida gigiyenik talablarning klinik samaradorlikka ta'sirini o'rganish va profilaktik tavsiyalar ishlab chiqish.

Tibbiy usul va materiallar

Tadqiqot davomida 2025–2026 yillar mobaynida **Sosh klinikasida** olib borilgan amaliy ish jarayonida yuqori jag' sohasida implantatsiya o'tkazilgan 64 nafar bemor klinik kuzatuvga olindi.

Tadqiqot metodlari:

Klinik ko'rik

Rentgenologik tekshiruv (OPG, KT)

Gigiyenik indekslar (OHI-S)

Mikrobiologik surtma tekshiruvi

Statistik tahlil (variatsion statistika usullari)

Bemorlar ikki guruhga ajratildi:

1-guruh – standart gigiyenik tayyorgarlik;



2-guruh – kuchaytirilgan gigiyenik protokol (professional tozalash, 0,12% xlorheksidin, individual gigiyena instruktaji).

Natijalar va muhokama

Tadqiqot natijalariga ko'ra, kuchaytirilgan gigiyenik tayyorgarlik qo'llanilgan guruhda asoratlar 25% ga kam kuzatildi. Periimplant shilliq qavat yallig'lanishi 1-guruhda 18%, 2-guruhda esa 7% ni tashkil etdi.

Yuqori jag'da sinus-lifting operatsiyasi o'tkazilgan bemorlarda operatsiyagacha og'iz bo'shlig'i sanatsiyasi muhim ahamiyatga ega ekani aniqlandi.

Gigiyenik talablar quyidagilarni o'z ichiga oladi:

Operatsion xonaning sterilizatsiya rejimi

Jarrohlik asboblarning avtoklavda ishlov berilishi

Shifokor va yordamchi xodimlarning individual himoya vositalari

Operatsiyadan oldin professional gigiyena

Antiseptik bilan og'iz chayish

Operatsiyadan keyingi individual gigiyena ko'rsatmalari

Implant yuzasining mikrobiologik kolonizatsiyasi ko'p hollarda noto'g'ri gigiyena bilan bog'liq ekani tasdiqlandi.

Xulosa

Yuqori jag' implantatsiyasida gigiyenik talablar implant muvaffaqiyatining asosiy omillaridan biridir. Operatsiyagacha professional og'iz bo'shlig'i gigiyenasi periimplantit xavfini sezilarli kamaytiradi.

Sinus-lifting operatsiyalarida antiseptik nazorat kuchaytirilishi lozim.

Individual gigiyena bo'yicha bemorlarni o'qitish uzoq muddatli natijalarni yaxshilaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Олимбаев Бекзоджон Музаффар ўғли. (2025). МАКТАБЛАРДА ТАББИЙ ЁРИТИЛГАНЛИК. TADQIQOTLAR, 76(6), 166-167.
<https://journals.org/index.php/tad/article/view/12006>
2. Olimbayev Bekzod Muzaffar o'g'li. (2025). YOSHLARDA ENDEMIK BUQOQ. Ta'lim Innovatsiyasi Va Integratsiyasi, 59(4), 29-30.
<https://journals.org/index.php/tal/article/view/11983>
3. Ata-Ali J. Peri-implantitis: associated risk factors. Med Oral Patol Oral Cir Bucal, 2020.
4. Albrektsson T., Wennerberg A. Oral implant surfaces. Int J Prosthodont, 2019.

